



JOURNAL OF
NATURAL SCIENCE

№ 4(9)2022



| <u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u> | <u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u> |
|--|--|
| <p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц. Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц. Масъул котиб- Ш Урозов</p> | <ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор |
| <p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p> | <ol style="list-style-type: none">8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц |
| <p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p> | <ol style="list-style-type: none">15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц. |
| <p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p> | <ol style="list-style-type: none">18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц |
| <p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p> | <ol style="list-style-type: none">20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD) |

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspu.uz](http://www.natscience.jspu.uz)

Isiriq va uning foydali xususiyatlari

Hasanjonova Komila Shodiyor qizi

hasanjonovakomila@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada isiriq haqida umumiy ma'lumot, hayot shakli dorivorlik xususiyatlari va xalq xujaligida ahamiyati haqida to'liq yoritilgan.

Аннотация: В этой статье общая информация о ладане, лечебных свойствах жизненных форм и его значение в народном хозяйстве полностью объясняется.

Annotation: In this article, general information about incense, life form, medicinal properties and folk economy importance is fully explained.

Kalit so'zlar: Isiriq (peganim), Peganum harmala, isiriqdoshlar oilasi, cho'l va yarim cho'l, barg, tutqanoq.

Ключевые слова: Благовония (пеганум), Пеганум гармала, семья друзей, пустыня и полупустыня, лист, захват.

Keys word: Incense (peganum), Peganum harmala, desert and semi desert, leaf, seizure.

Isiriq (Peganum) - isiriqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar turkum. Isiriq – bu Nitrariaceae oilasining ko'p yillik o'ti hisoblanadi, kuchli o'ziga xos hidga ega, balandligi 40-70 sm. Ildizi ko'p boshli, yog'ochlangan, qalin (diametri 3-5 sm), tuproqqa 5 m gacha chuqurlikka kirib boradi. Poyalar shoxlangan, egri-bugri, silliq, zich bargli. Barglar o'troq, ketma-ket, uzunligi 4-5 sm, eni 5-6 sm, asosigacha uchga bo'lingan, bo'laklari ham chizikli bo'laklarga bo'linadi. Yonbarglari bargsimon, lansetsimon-bigizsimon. Gullari ko'p sonli, oq, poyalar va novdalarning yuqori qismida joylashgan. Mevasi sharsimon, uch hujayrali yassilangan ko'sak, diametri 0,6-1 sm, ko'p sonli urug'lardan iborat. May-iyul oylarida gullaydi,

mevalari iyun oxiridan avgustgacha pishadi. O'zbekiston hududida keng tarqalgan bo'lib Qoraqolpog'istonda ham keng tarqalgan bo'lib barcha tumanlarida uchraydi. Ayniqsa chorva mollari ko'p boqiladigan hududlarda keng tarqalgan bo'lib zich o'sish maydonlarini tashkil qiladi. Tekisli tog' etaklaridagi cho'llarda tog'oldi qiyaliklarida, qumli, qumloqli, gilli, sho'rtobli va sho'rlangan mayda shag'alli tuproqlarda o'sadi. Mayda zarrali qiyaliklar va cho'l daryo vodiylari bo'ylab u tog'larga ko'tariladi. Begona o't sifatida isiriq cho'lda aholi yashash joylari va quduqlar yaqinida keng tarqalgan. Ba'zi bir yirik o'simliklarning poyalar 150 tani tashkil etadi, ularning diametri 100-150 sm gacha bo'ladi. Er usti qismlari mart oxirida va aprelda intensiv o'sadi. Gullash aprel-may oylarida boshlanadi. O'sish mavsumi avgust oyida tugaydi, ba'zida u kuzgi sovuqqa qadar davom etadi. Issiriqning tabobatdagi o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, sir emaski bu o'simlik “tabiat gavharlaridan” biri hisoblanadi. Tibbiy maqsadlar uchun kamroq isiriq urug'lari, ko'pincha o'simlik o'ti ishlatiladi. Isiriqdan kelib chiqqan holda, deoksipeganin gidroxloridi antixolinesteraza xususiyatlariga ega va miopatiya va miasteniyani turli shakllarini davolashda, shuningdek, surunkali ich qotishi va kelib chiqishi turlicha bo'lgan ichak atoniyalarida davolovchi vosita sifatida ishlatiladi. Isiriq urug'lari tarkibidagi garmindan epidemik ensefalit, titrovchi falaj va Parkinson kasalliklarining asoratlarini davolashda foydalaniladi Tabobada keng miqyosda ishlatiladi. O'zbekistonda 1 turi Peganum harmala, o'sadi. Cho'l va yarim cho'llarda, aholi yashaydigan yerlarda ekinlar orasida va tog' yonbag'irlarda uchraydi. Tarkibida alkaloidlar (garmin, peganim) yog'.bo'yoq va boshqa moddalar bor. O'simlik ildizida 3,3 % gacha , poyasida 3,57 % gacha , bargida 4,96 % va urug'ida 6,60 % gacha alkaloidlar borligi qayd qilingan bo'lib , ular yig'indisidan garmalin , garmin, peganol , dezoksipeganin kabi moddalar ajratib olingan. Tabobatda tutqanoq, tomog' og'rig'i, zaximni davolashda, siydik haydovchi , terlatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Isiriqning sut shirasi tibbiy paxtaga shimdirilib qichimadan qiynalgan joylarga 10 kun surtilsa qichimani tuzatadi. Isiriq o'tini kuydirib, biroz hidlansa bosh og'rig'i yo'qoladi; Isiriq urug'I qaynatmasi nafas

olishi qiyinlashganda , nafas qisishida zig‘ir urug‘i bilan bilan araashtirib ichilsa yuqoridagi dardlarga davo bo‘ladi;Isiriqning shonalash davrida olinadigan o‘ti va urug‘lari davolashda ancha samarali hisoblanadi. Abu Ali Ibn Sino isiriqni kuymich asablari shamollaganida , tizza va suyaklar qaqshab og‘riganida , og‘riq qoldiruvchi omil sifatida ishlatishni tavsiya etgan . U isiriqdan kuchli siydik haydovchi omil sifatida foydalangan . Isiriqning sut shirasiga 10 kun davomida shimdirilgan bir tutam paxta yoki junli mato qichma bilan og‘rigan bemorlarga surtilsa , ular anchagina taskin topishi haqidagi ma‘lumot ulkan ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniyning «Kitob as-saydana fit-tibb» asarida keltirilgan . Isiriq va zig‘ir urug‘ining qaynatmasi nafas olishining qiyinlashishida , qalampir urug‘i qaynatmasi bilan birga zahm , bod kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Ilmiy medesinada isiriqning dorivor preparatlari qo‘l , oyoq va boshqa yerlarning doim titrab turishi hamda tutqanoq kasalliklarini davolashda ishlatiladi Isiriqning dorivor preparatlari uxlatuvchi ta’sirga ham ega . Isiriq tutuni bilan xonalarni tutatish sharq xalqlari orasida odat tusiga kirgan. Bu esa uy-joylarni dezinfeksiya qilish bilan birga xona havosini tozalaydi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ibn Sinoning “Tib qonunlari”1-chi tomi.
- 2.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.Toshkent 2000 yil
3. <https://kadastr.uznature.uz/dorivor-va-ozuqa-maqsadlarida-ishlatiladigan-yovvoyi-holda-osuvchi-osimliklar/peganum-harmala/>.